

## DUNYO ONALARIGA BAG'ISHLANGAN ASAR

**Nuriddinova Muhtaram Baxtiyor qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola elimiz suygan, qalbidan joy olgan yozuvchi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasidagi ona obrazni, uning mehr-muhabbati haqida

**Kalit so'zlar:** ona, tuyg'u, asar,qissa

### Abstract

This article is about the mother's love in the story "Works of the World" written by the writer O'tkir Hashimov, who is dear to our heart and has a place in his heart.

**Key words:** mother, feeling, work, story, love.

Shunday asarlar borki, inson o'qigani sari yana ham o'qigisi kelaveradi. Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo'tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor, albatta. Lekin, ayni vaqtda, har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o'z fe'l-atvori, tabiat, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Ona butun bir xalq, butun bir millatning o'ziga xosligi, shakllanishi, namoyon bo'lishida alohida o'rin tutuvchi siymodir va ayni vaqtda, har bir inson kabi jamiyat, muhit, sharoitning vakili sifatida o'ziga xos bir individumdir. O'zbekiston xalq yozuvchisi, iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimov o'z asarlarida butun onalarning ta'rifini, dunyoqarashini, o'zligini namoyon etadi. Yozuvchi o'zining qariyb 40 yil davomida yozgan asari "Dunyoning ishlari" qissasini o'z onasiga balki butun dunyo onalariga bag'ishlaydi. Ushbu asarining kirish qismida shunday deb yozadi: Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasi men uchun eng aziz odam-onasi siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi,xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatli onamga bog'langan. Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, Bu asar sizlarga bag'ishlanadi aziz Onajonlar! O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov 20-asr o'zbek adabiyotida o'z o'rni va uslubiga ega bo'lgan adib. Uning asarlari oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Dunyoning ishlari asari ham anashunday xalqchil asarlar sirasiga kiradi.

Yozuvchining bu asari avtobiografik asri desak mubolag'a bo'lmaydi. Unda yozuvchining bolaligi, xotiralari, qismati aks etgan. Yozuvchining boshqa asarlarida ham o'zbek onalarning kechinmalarini ko'rishimiz mumkin. "Ikki eshik orasi" romanida ham Qora ammaning o'g'li Kimsanning dog'ida o'tkanligini ko'ramiz.

O'tkir Hoshimovda nafosat tuyg'usi behad kuchli. Hatto u aldangan odamning ma'naviy inqirozi, fojiasi, halokati tasvirida ham shu tuyg'u saqlab qoladi. Ayniqsa, u yaxshi, oliyjanob, ma'naviy barkamol shaxslar qalbi, tabiat tasvirida o'zini nihoyatda erkin his etadi. Yozuvchining ijodiy qahramonlari aksari go'dakday beg'ubor, nafosat tuyg'usiga boy, hissiyotchan, o'ta ta'sirchan odamlar.

"Dunyoning ishlari" qissasidagi "Kitob" hikoyasi ham yozuvchining boshida o'tkazgan voqeasi. Onasining soddadil ekanligi, ko'nglida zarracha bo'lsa ham kiri yo'qligi shu hikoya orqali bilib olishimiz mumkin.

Asardagi "Iltijo" hikoyasida yozuvchi shunday deydi: Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta o'shandayam hazillashib: "Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim" degandingiz. Men: " Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?" degan edim. Xafa bo'l mang, men hazillashgan edim. Mana, o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Yozuvchining suyangan tog'i onasi bo'lган. Onasi vafot etgach uning tog'i qulab tushgan. Yuqoridagi gaplari orqali yozuvchi aytgan gaplaridan pushaymon bo'lганligi, siqilganligi bilinadi.

O'tkir Hoshimovning qirqdan ortiq asarlari nashr etilgan. Ushbu kitoblarning umumiyligi tiraji 2 million nusxdan oshiq. Yozuvchi asarlari ko'pgina xorijiy tillarga tarjima qilingan. Bu hikoya haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday dedi: "Men "Dunyo ishlari" asarini hikoya emas, doston demoqchiman. Bu qo'shiq kabi o'qiladi. Uni o'qiganimizda onalarimizni ko'z oldimizga keltiramiz. Ko'z o'ngimizda ana shu bechora, qaysar onalarga bir umrlik qarzlarimizni hech bo'l maganda to'lay oldikmi, degan o'y, savol turibdi. Tarix bizni halol bo'lishga, insonlarni qadrlashga va hurmat qilishga chaqiradi".

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Dunyoning ishlari" qissasi eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar Ona qalbining cheksiz sahovati haqida o'ziga xos asardir. Asarda yozuvchining ichki kechinmalari to'la aks etgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissa "Ilm-ziyo-zakovat" Toshkent-2019
2. Bahoriddinova Shahzoda Farhod qizi Bitiruv malakaviy ishi. Toshkent-2018
3. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1042>